

SIRLI, SEHRLI QALAM SOHIBI

Ibragimova Ra'no Isakovna

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7493505>

Dunyo xalqlari adabiyotida shakliy-uslubiy va ijodiy izlanishlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mohiyatini yoritish, ilg'or adabiy an'analarni o'zlashtirishga intilish poetik talqin taraqqiyoti omili sifatida baholanadi. Badiiy tafakkurdagi yangilanishlar va badiiy mahoratni yaxlit muammo sifatida tekshirish, uzluksiz jarayonda poetik an'ana hamda tajriba bir-biriga o'tib turishini belgilashga hamisha jiddiy e'tibor qaratilgan. Natijada adabiyotimiz xazinasini boyituvchi badiiy barkamol namunalar yaratilgan. Xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan o'zbek she'riyati, adabiyoti ezgu maqsadlarga qaratilganligi va o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv darida "...Insonning qalbi, uning dardu tashvishlarini, xalqning orzu-niyatlarini, Vatanga muhabbat va sodiqlik hissiyotlarini aks ettiruvchi betakror so'z"¹ har qachongidan ko'proq vazifa o'taydi. Binobarin, harakat va faoliyatni milliy an'ana va umuminsoniy qadriyatlar asnosida tekshirish va yangi estetik qiymatga yo'naltirish masala mohiyatini oydinlashtiradi.

G.Matyoqubova tomonidan yaratilgan **«Uyg'onish nashidasi»** nomli to'plamni o'qir ekanmiz, mamlakatimizda mustaqillik yillaridagi ma'naviy uyg'onish nashidasini sezganday bo'lamiz. Shoiraning keyingi yillarda yaratgan ijod mahsuli bo'lgan dostonlari, publitsistik maqolalari yurtimizdagi bunyodkorlikni va farovon turmushni keng tarannum qiladi. O'tgan yillar davomida G.Matyoqubova o'zbek kitobxonlariga, ziyolilarga, badiiy adabiyot ahliga o'zining serqirra ijodi, hassos so'zi bilan yanada qadrdon bo'lib qolgan.

Yangi kitob to'rt bobdan iborat bo'lib, «Istiqlol ne'matlari» deb atalgan birinchi bobida publitsistik maqolalar, safarnomalar o'rin olgan, ikkinchi bob «Ilhom qanotlari», uchinchi bob «Hayrat o'lchamlari», to'rtinchi bob «Ruhiyat epkinlari» deb nomlanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, to'plam rang-barang janrlardan, ajoyib uslublar va mavzular shodasidan tarkib topgan. Barchasida muallifning falsafiy dostonlari, maroqli suhbatlari, teran fikrlari ayniqsa, qoraqalpoq xalqining boy tarixi, sodda xarakteri, o'lmas orzu-armonlari juda chiroyli va betakror holda aks ettiriladi. «Zulfiya ziyosidan nur olib» esesida 1970 yillarda bo'lib o'tgan ustoz-shogirdlarning dilkash suhbatlarini eslaydi. Zulfiya siymosida buyuk jasorat, sadoqatga tan beradi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъатни, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини такомиллаштиришнинг мустаҳкам пойдевори// Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, 4 август, 153 (6847)-сон.

Sadoqat bo'ldingiz O'zbekistonga,
Gul bo'lib ko'kardi tog'larning toshi.
Har otgan tonglarni yo'rgaklab shonga,
Bugun yurt e'zozlar, siylar Yurtboshi.
She'ringiz jon bo'ldi hazrat insonga,
Siz ona bo'ldingiz O'zbekistonga².

Haqiqatan ham, o'z xalqiga muhabbat, sadoqatli bo'lish, ona bo'lish baxti faqat Zulfiyaxonimga nasib etgan edi. Bu ramziy ma'nodagi ona timsoli yurtimizda yetishib chiqayotgan yosh ijodkorlarga nisbatan juda to'g'ri qo'llangan.

Ikkinchi bobda qoraqalpoq xalqining ikki chinori O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi To'lepbergan Qaipbergenov va O'zbekiston Qahramoni, atoqli shoir Ibroyim Yusupov, shoira Guloysha Esemuratovalarning serqirra ijod mahsuli, ijodiy faoliyati haqida suhbatlar shaklida so'z yuritiladi. Uchinchi bobida she'rlar va dostonlar yangi davr kechinmalari, orzulari haqida so'z yuritadi. To'rtinchi bobda xat uslubidagi yangi bir asar yuzaga keladi. O'y-xayollar xat orqali ochib beriladi.

Mustaqillik yillarida shoira ijodidan falsafiy ma'nodagi she'rlar ham salmoqli o'rin egallagan. Bu she'rlarida hayotning pastu balandliklari, quvonchu tashvishlari, bu dunyoning o'tkinchiligi haqida ruhiy kechinmalari o'z aksini topadi. "Qolar" deb nomlangan ushbu she'rida shoira bu dunyoda insonlardan faqat yaxshi nom abadiy qolishi munimligini chiroyli o'xshatishlar misolida kuylaydi. Haqiqatan, bu dunyoda tog'lar, daryolar qolaveradi, lekin odamzot har doim bu dunyoga mehmon ekanligini, g'animat dunyoda yaxshiliklar qilib, mehr oqibatli bo'lish bilan nurli kelajagimizni yaratishimiz mumkinligiga ishora qilib, insonlarni biroz hayot haqida o'ylab ko'rishga majbur qiluvchi haqqoniy she'rlardan biridir. Chunki yaxshi va halol xizmat el orasida hurmat va e'zozga sazovor qiladigan oliy fazilatdir.

Ming asr aylansa charxi kajraftor,
Yer ustida daryo qolar, tog' qolar.
Murod bilan yashab o'tsa har inson,
Yer ustida davlat qolar, bog' qolar.
Halol bo'lsa er yigitning xizmati,
Ravshan bo'lar har yoshining bekati.
Elning inoyati, izzat, hurmati,
Bo'lib mangulikka nur-chiroq qolur.

² Матёкубова Г. Уйғониш нашидаси. Т.: Тамаддун, 2016 й 36-б

Hayotga real nazar tashlab, o'tmish ruhiy kechinmalarini she'rlarda aks ettirar ekan, albatta orqaga bir nazar tashlab ko'rish kerakligini har doim o'ylab ko'ravermaymiz, ba'zan shunday she'rlarni o'qiganimizda tuyg'ularimiz uyg'onib ketadi. Masalan, "Shod aylasang" deb nomlangan she'rda inson uchun aziz va mo'tabar zot ota-ona bo'lsa ularning ko'nglini ola bilish farzandlik burch, ezgu ishlaringni eslaydigan va nomingni mangulikka daxldor qiladigan joy – Vatandir. Shuning uchun shoira insonlarni Vatan tuprog'ini obod aylashdek ezgu ishlarga undaydi.

Obro' martabangning oshgani sening
Onajoning ko'nglini shod aylasang.
Davlating yiqilib qaytgani sening,
Otangning umrini barbod aylasang.
Guliston der; qalbg'a aylanar so'zim,
Ajdodlar yodidan nurlanar ko'zim
Gul bo'lar orqangda qolgan har izing,
Vatan tuprog'ini obod aylasang.

Shoira ijodida doston janri ham ancha mavzu jihatidan rang-baranglik kasb etadi. Jumladan «Daryoga botayotgan ziyo», «Ziyoga botayotgan daryo», «Zulfiya», «Jirov qalbi» (qoraqalpoq xalq baxshisi Qurbonboy jirovga bag'ishlangan) dostonlaridagi siru sinoatning asosiy manbai ham aynan mustaqillik davri bergan katta imkoniyatlar, ijod erkinligi bo'lib hisoblanadi. Bu dostonlarda ezgu qadriyatlarimiz, ajdodlarimizga bo'lgan cheksiz hurmat va e'tiqod tushunchalari lirik timsollar tilida aks ettiriladi.

G.Matyokubova ijodini qoraqalpoq adabiyoti vakillari, olimlar o'rganishgan va juda yuksak baho berishgan. Masalan, T.Qayipbergenov shoiraning «Qalb zuræti» deb nomlangan qoraqalpoq tilidagi to'plamiga yozgan so'zboshida shoiraning ijodiga yuksak baho berib shunday yozadi: «Shoiraning «Daryoga botayotgan quyosh», «Ziyoga botayotgan daryo», «Zulfiya» dostonlarida lirik qahramon chin ma'nodagi ko'ngil odami bo'lganidan ko'ngilning eng sirli dunyolari, past-balandliklari tomon qushday erkin parvoz etadi. Misralariga hayratlanarli sehrli kuch jamlangan»³. Q.Jarimbetov shoira ijodi haqida shunday yozadi: «Kitobxon shoiraning ko'ngil sirlari, yurak to'lqinlari, samimiy tuyg'ular bilan yo'g'rilgan she'riyatini qayta o'qisa, shoira poeziyasining kalitini topadi. Vatanga muhabbat tuyg'ulari, inson qadr-qimmati, sadoqatga yo'g'rilgan satrlardagi mavzular uning lirikasida to'laqonli o'z aksini topgan.»⁴

³ Мәтякубова Г. Қалб зурәәти. Нөкис. "Қарақалпақстан", 2004. 4-6

⁴ Матёкубова Г. Уйғониш нашидаси. Тошкент.: "Тамаддун", 2016 412-6

Olim J.Bozorboevning «Daryoga botayotgan quyosh, qalbga singgan daryo» maqolasi shoira yaratgan ikki doston tahliliga bag'ishlangan. Sh.Usnatdinovning «Uyimizdey sawlatli» maqolasida shoira zamon bilan hamnafas qadam tashlab kelayotgan serqirra ijodiga baho beriladi. Q.O'razimbetovning «Qalb jang'irig'i» maqolasida shoira she'riyatining o'ziga xos tomonlari ochib beriladi, betakror fikr-mulohazalar bildirilib, ijodi e'tirof qilinadi.

Shuningdek shoira «Eng nafis gul» poemasi ham har bir shoir qalamiga mansub ona yurt taraqqiyotiga bag'ishlangan. To'rtko'llik mohir paxtakorlarning shijoatli mehnati tarannum etiladi. Paxta dalasidagi holat juda badiiy tarzda, jonli lavhalarda tasvirlangan. Lirik qahramon «Dunyodagi eng nafis gul paxta guli»-deya paxta dalasidagi mehnatidan shuhrat topadi. Dostonda xalqimizning mehnatsevarligi, fidokorligi asar qahramonlari nutqi orqali ochib beriladi, ulug'lanadi.

Shoira mustaqillik davri she'riyatida sonetlar o'ziga xos o'rin egallaydi. Sonet adabiyotdagi o'ziga xos shaklga ega bo'lgan janr, 14 misradan iborat, 1-2-band 4 misradan, 3-4-band 3 misradan iborat bo'ladi. Lug'atlarda sonetga shunday ta'rif berilgan: «Sonet-lotincha sonetto-jarangdor, baland, chinqiroq. Belgilangan qat'iy qonun-qoidalar (hajm, ritm, vazn, qofiya) asosida yaratilgan, 14 misradan iborat she'riy janr.» Demak, sonetlar shakl jihatdan umuman o'zgachalikka ega bo'lgan she'r turi bo'lib, jahon adabiyoti namunasi sifatida milliy adabiyotimizga kirib kelgan. Chet el adabiyotida Dante, Shekspir, Gyote sonetning go'zal namunalarini yaratgan. G.Matyobova sonet janridagi she'rlarini Shekspirdan ilhomlanib yozganini ta'kidlab o'tadi. O'zbek adabiyotida ham B.Boyqobilov, R.Parfilarning ijodida sonetning yetuk namunalarini yaratilgani ma'lum. Shoira sonet yaratish qonun-qoidalariga amal qilib, tajriba va an'analarga sodiq qolgan holda bir-birini to'liqtirib boruvchi 15 ta sonet yaratgan. Shoira sonetlarida inson lirik kechinmalarini, quvonch-qayg'usini hayajonli ruhiy holatlarda tasvirlashga erishgan. Sonetlarida ham mustaqillik, vatan mavzusi o'quvchiga ilhom bag'ishlaydigan go'zal misralarga singdirilgan:

«Bir gulchambar bog'ladim tuyg'ularimdan,

Har bandiga orzularim, mehrimni qo'shdim.

Huzuringga keldim bugun sog'inchlar bilan,

Quchog'ing och Yonbosh qal'am, ey qadim yurtim.

Ko'z ochirmas shamolingni tinchitib qo'yib,

Barxanlarning orasidan ochdik uzun yo'l.

Moziy olgan izlaringda bir mehr tuyib,

Keng bag'ringda osmon qadar o'smoqda ko'ngil.

Chechaklarga burkanadi, qadim Qizilqum,

Maysalari kashf qiladi hur iqbolingni,
Yerda inson, ko'kda quyosh ochadi ko'rking.
Amudaryo to'ldiradi istiqbolingni,
Sohillarga qo'yadi u hayotbaxsh ko'ksin,
Mangulikka eltmoq uchun istiqbolingni»⁵.

Shoira ko'ngli daryolardek keng, ijodida, juda ko'pchilik she'rlarida daryo so'ziga urg'u beriladi, daryo ramziylik kashf etadi. Ushbu sonetida ham real voqelik, ona vatanga muhabbat, tabiat va hayotga muhabbat, Amudaryo mavjlari bilan hamohang jo'shqin tarannum etiladi.

Shoiraning mustaqillik yillaridagi ijodida turfa janrlardan biri qissalaridir. Muallifning «Qatorlar» badiasi hayotni kuzatishlari asosida yaratilgan voqelik deyish mumkin. Shoira el orasida bir qancha qatorlar bo'lishiga ishora qiladi, buni ona suhbatida misolida jonlantiradi. Haqiqatda qatorlar bu insonlarning jamiyatga aralashuvi, odamlar qatoridan o'rin olishi ekanligi va har kim o'z hayotida har xil qatorlarga mansub bo'lishini badiadagi voqealar misolida mahorat bilan tasvirlab beradi.

Shoira tomonidan mustaqillik yillarida yaratilayotgan har bir asari xalqimizga ma'naviy kuch bag'ishlaydigan chinakam xalqona o'zbek va qoraqalpoq adabiyotining, she'riyatining ham rivojiga hissa qo'shgan yutuqlardan bo'lib, ijodining har jihati mustaqillik g'oyalariga sadoqat bilan xizmat qilishga undovchi asarlardir. G.Matyobova dramaturg sifatida **“Qatorda noring bo'lsa”** poetik dramasini yaratgan. Drama shoiraning sahna asarlari yaratish yo'lidagi ijodiy izlanishlarining yangi qadamidir. Asar qoraqalpoq xalqining fidoiy, xalqparvar, qoraqalpoq adabiyotida o'zining mustahkam o'rniga ega shoir va olim N.Japaqov xotirasiga bag'ishlangan. Shoiraning sahna asarlaridan yana biri qoraqalpoq xalq og'zaki ijodidan «Qirq qiz» dostoniga yozilgan «Guloyim» librettosi bo'lib, shoiraning sahna asarlari yaratish yo'lidagi salmoqli ijod namunalaridan biridir.

Shoira nasriy ijodda ham muvaffaqiyatli qalam tebratmoqda. O'nlab hikoya va qissalar, ocherklar yaratib bu boradagi qobiliyatini namoyon qilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shoira ikki tilda birdek ijod qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'atni, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini takomillashtirishning mustahkam poydevori// Xalq so'zi. – Toshkent, 2017, 4 avgust, 153 (6847)-son.

⁵ Матёқубова Г. Йўлларингга чиқдим. Нукус. “Қарақалпақстан”, 1997. 241-б

2. Mətyakubova G. Qəlb zurəəti. Nəkis. "Qaraqalpaqstan", 2004. 4-b.
3. Matyoqubova G. Uyg'onish nashidasi. Toshkent.: "Tamaddun", 2016 412-b.
4. Matyoqubova G. Yo'llaringga chiqdim. Nukus. "Qaraqalpaqstan", 1997. 241-b.